



G'ARB TILSHUNOSLIGIDA TIL VA NUTQ BAHSI

Annotatsiya:

Maqolada G'arb tilshunosligi yo'nalishida olib borilgan tadqiqot jarayonlariga sinxron munosabat bildirilgan. Unda zamonaviy lingvistika nuqtai nazaridau til va nutq dixotomiyasi zanjirida logik, grammatik, fonetik, dialektologik, sociolingvistik, psixolingvistik, lingvokulturologik va estetik nazariy qarashlarga e'tibor berilishi sabablari oydinlashtirilib aniqlangan. Ushbu maqola yosh tadqiqotchilar lingvistik qarashlarini boyitishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar:

G'arb tilshunosligi, tadqiqot jarayonlari, sinxron va diaxron tahlil, zamonaviy lingvistika, til va nutq dixotomiyasi, grammatika, fonetika, dialektologiya, logika, sociolingvistik, psixolingvistik, lingvokulturologiya, estetika.

Information about the authors

Bobokalouov Ramazou Rajabovich,
Filologiya fanlari doktori, professor

Atoyeva Gulafzo Azimjon qizi, Sadulloyeva Ferangiz Ubaydillo qizi
Buxoro davlat universiteti studenti

G'arb tilshunosligida XV asrdan boshlab italyan, ispan, niderland tillarining, XVI asrdan esa frantsuz, ingliz, chex, venger tillarining grammatikasi va lug'at tarkibi, XVIII–XIX asrlar davomida shved, shvetsar, frantsuz, ispan, norveg, finland va yana bir qator tillarning umumfilologik, xususan, fonetika va hududiy dialektologiya sohasida ko'plab ilmiy asarlar yaratildi. Bu ilmiy asarlarning aksariyati zaminida tillarning paydo bo'lishi, ularning umumiy tasnifi, har bir millatning adabiy til yaratish g'oyasi kabi masalalar ko'zga tashlanib turadi.

XVII asrda R.Dekard, B.Spinoza, N.Kant, G.Leybnits, Fixte, G.Gegel kabi faylasuf tilshunos-ratsionalistlar o'z asarlarida aql inson faoliyatida yetakchi omil ekanligini e'tirof etganlaridan so'ng [Степанов] tilshunoslik fanini o'rganishda qarashlar o'zgara boshlandi. Shunga hamohang butun XVIII asr davomida til grammatikasi falsafiy nuqtai nazardan «universal» va «ratsional» grammatikaga bo'lindi. Bu davrda grammatika va til qoidalari, asosan, mantiqiy tafakkur nazariyasi nuqtai nazardan qorishiq tarzda tahlil eta boshlandi. B. Malmberg sharqlashicha [Malemberg1972], ma'lum darajada til tadqiqi masalalarida mantiq fani grammatikadan ustunroq qo'yildi.

G'arb tilshunosligida, dastavval, shevalarining yoyilishiga qarshi kurash boshlandi. Bu jarayon O'rta asr Uyg'onish davridan XIX asrgacha davom etib keldi. Yevropaning ko'p mamlakatlarida azistokrat tilshunoslar sheva tillariga «nasli buzulgan til» – kelib chiqishi mo'rt, oddiy dehqonlar gapiradigan vulgar nutq sifatida past nazar bilan qarashdi. Bunday nazariya shevalarga nisbatan kamsitish va hurmatsizlikni keltirib chiqardi. Frantsiyada adabiy til yaratishda shevalarga umuman ahamiyat berilmadi. Tarixan bir yoqlama – tag-tubi german dialektidan shakllangan aristokrat franklar tilidan fransuz adabiy tili barpo etildi. Gapning bosh bo'laklari «mantiqiy sub'ekt va predikat» - hukm bilan tenglashtirildi. 1660 yilda Por-Royal monastrida xudojo'y Klod Lanselo va ruhoniylar Arno tomonidan



shu tamoyil asosida frantsuz tili «*grammatika*»si yaratildi. Bu grammatika “*aql asoslariga qurilgan*” gapirish san’atini asoslab beruvchi “*Umumiy grammatika*” deb ataldi.

Ingliz olimlari Fridrix Diez, Gaston Pari, Antuan Tomas o’z tadqiqotlarida dialektologiyani tuzilishini o’rganishda asosan tarixiy matnlarga tayanishdi. Ular qiyoslash va farqlash usuli (dixotomiya)ni dastavval ingliz “milliy yozma tili”da qo’llab, xalqchil va g’ayritabiiy sheva tili rasmiy yozma tilning rivojini belgilamasligini ta’kidlashdi.

Nemis olimi A.F.Berngard ham so’z turkumlarini ajratishda mantiqqa asoslandi. U so’z turkumlarini sub’ekt, predikat va fe’l bog’lamalarga nisbatladi. Yuklamalarni ajratib, shu guruhga artikl va old qo’shimchalarni kiritdi. A.F.Berngardning til haqidagi fikrlari undan keyin ijod etgan F.Bopp, V.Gumboldt kabi XIX asrning mashhur nemis tilshunoslari qarashlariga ta’sir qildi. Gerder tilning paydo bo’lishi va tarahqiyotini jamiyatdan ayri tafakkurning paydo bo’lishi bilan bog’ladi. Inson nutqining paydo bo’lishida aql bilan tabiatdagi tovushlarga taqlid qilinganligi va unda predmetning belgilari mavjudligi e’tirof etilib: “*Tilda xalqning ruhi ifodalangan bo’ladi*”, degan nazariya ilgari surildi. Bu fikr Vilgelm fon Gumboldt [Гумбольдт 1984.] tomonidan aloqida rivojlantirildi va uning tilni tizim tarzida o’rganish g’oyasi Ferdinand de Sossyurning sistem-struktur tilshunoslik maktabining asos solinishiga sabab bo’ldi [Coccюp 1977].

XX asr boshlarida nemis tilshunoslari F.Tsarnke, u bilan bir qatorda g’ayrat va shijoatli yosh tilshunolar – Leyptsig universiteti olimlari A. Leskin (1840-1916), K. Brugman (1849-1919), G.Ostrof (1842-1907), G. Paul (1846-1921), B. Delbryuk (1842-1922) va boshqalar umumiy tilshunoslikda g’alayon boshlab yubordilar. Ularni hazillashib o’zlarini “Junggrammatiker” – “Yosh grammatistlar” deb atashdi. K. Brugman bu nomni yangi lingvistik maktabning bayrog’iga aylantirdi va «Yosh grammatistlar»ning falsafiy qarashlari zaminida yangi tilshunoslik yo’nalishlariga qo’l urildi. Ularning qarashlarida tilshunoslik uchun muhim bo’lgan psixolingvistik tasavvurlar yotardi. Bu esa nemis faylasufi Shteytal fikrlarining soddalashtirilgan va o’zgartirilgan ko’rinishi edi. Ular tilning psixofiziologik holatga – fonetik hodisalarga e’tibor berdilar: morfologiya sohasiga kamroq, sintaksisga esa qo’l urmadilar. Shu sababli Evropaning qator mamlakatlarida yangi tilshunolar – “*neogrammatistlar*” paydo bo’ldi. Ular psixolingvistika bilan bir qatorda sotsiolingvistikaga ham yo’l ochib berdilar. Shundan so’ng “til va nutq” dixotomiyasi keskin farqlanadigan bo’ldi. F. de Sossyur bu dixotomiya zanjirida «nutq konkret (aniq), ko’rish mumkin bo’lgan moddiy shaklda, til esa yashirin ichki nomoddiy (ruqiy, ideal) hodisa sifatida namoyon bo’lishini» ta’kidladi. Uning fikricha, til nutqqa nisbatan umumiy va yaxlit tizimdir. Nutq esa tilga nisbatan aniq hodisa hisoblanib, uni shakllantirishning o’ziga xos talab va qonuniyatlari mavjud. Til tizim asosida tashkil topgan yaxlit bir butunlik bo’lib, uning unsurlari tashkil etuvchilik tamoyiliga asosan ana shu butunlik doirasida o’zaro bog’langan bo’ladi.

“Neogrammatistlar” vakillaridan mashquri italyan faylasufi Benedetto Kros “*Estetik tasvir va lingvistika fan sifatida*” nomli asarida boshqa tilshunoslarni V. fon Gumboldt ta’limoti haqida chuqurroq o’ylashga turtki berib, estetika va lingvistikani birga tahlil qildi. U she’riyat va tilni bir xil daxldor tushunchalar deb baholadi. Kros uchun estetika falsafaning bir bo’lagi bo’lib, uning markazida tushuncha joylashadi. Uning fikricha, estetika markazida til ham tushunchadir. “Tushuncha ikki shaklga ega: 1. Sezgiga asoslangan tushuncha – tasvirlash orqali kechadigan jarayon. 2. Mantiqiy tushuncha – aql bilan kechadigan jarayon. Uning izoqlashicha, “tushuncha tasvir va fikr yaratadi. Sezgiga asoslangan barcha tushuncha va haqqoniy tasvir ayni vaqtda ifoda ham bo’la oladi. Ifoda sezgining faollashuvi – inson xohishining faollashgan jarayoni. Til aniq belgilangan tovushlardan tashkil topgan tushunchadir. Agar tilshunoslikning ob’ektida tushuncha va ifoda bo’lsa, tilshunoslik va estetika o’rtasida boshqa farq yo’q. Til mantiqiy narsaning belgisi emas, u tasvirdir. Zero, til she’riyatda va tasvir ifodalashda bir xil rol o’ynaydi.” [Benedetto Cross 1972].



Kros uchun o'ziga xos tushuncha, bu aniq bir so'zning zarur lahzada yaratilishidir. U tildan foydalanishni san'atkorona nutq yaratishga qiyos qiladi. U "Yosh grammatistlar"dan farqli ravishda tilni ma'lum bir qoida va muayyan bir qonuniyatlar bilan «avtonom organizm» tarzida olib qaramadi. Balki u tilni toza organik qayotning toza qonunlari ostida o'zgarayotgan avtonom organizmdan boshqacharoq muhokama qilishni ma'qul topdi. So'zlashuv nutqida «*Sossyurning nutq tizimi ta'limoti*»ni «yagona lingvistik reallikdir» deb e'tirof etdi. Benedetto Kros shunday misol keltiradi: "Til lingvistik haqqoniylikdir. Agar aloqa munosabatidagi til tinglovchiga tushunarli bo'lmasa, u lingvistik vaziyat bo'la olmaydi. Og'zaki nutqning mazmunidan ko'zlangan maqsad uni to'g'ri yaratishdan iboratdir. Mazmunning kam tushunilishi nuqsonli va noaniq gaplashilishidadir" [Benedetto Cross 1972].

Bundan xulosa shuki, Kros yuritgan fikrning bir uchi tasvir va she'riyatni, boshqa bir uchi esa tilni tasdiqlab ko'rsatadi. Bu ta'rifni sinxron lingvistika uchun kam uchraydigan holat deb baholash mumkin. Uning fikricha, diaxronik lingvistika avtonom lingvistikadan keskin farq qilmaydi. Shunga ko'ra Benedetto Kros diaxronik lingvistikani alohida yoqlab chiqmadi. G'arbda uning bu fikrini o'rinli deb hisoblaganlar ko'p topildi. Ammo lingvistik faollikni ko'zlagan nuqtada estetika va uslubiyatdan tilni oldingi planga qo'yish boshqa tilshunoslar uchun noodatiy hol edi. Kros fikri lingvistikani boyitdi. Uning tilshunoslikka oid falsafasi, shubhasiz, so'nggi lingvistik qatlamdan joy ochdi. Krosning estetika haqidagi fikri tilshunoslik nazariyasi tizimini o'zgartirdi. Uning falsafasi Karl Vogler va yosh italiyan lingvistlarining nazariy qarashlarini boyitdi. Krosning «barkamol inson nutqi» falsafasi Yevropa lingvistik maktablarida tadbiq etila boshlandi. Yillar o'tib shved lingvistikasi vakili Nils Svanberg buni "*O'qish va gapirish nazariyasi*" asarida Kros estetikasini "tilshunoslik tizimiga ko'chirilgan idealizm" deb ta'rifladi.

Karl Voglarning "Tilshunoslik fanida pozitivlik va idealizm" [Karl Vogler 1972] asaridagi qarashlari ham Krosnikidek idealistik qarashning yangilangan ko'rinishi edi. Vogler uchun nutq individual ijod va stilistika lingvistikaning bir bo'lagi hisoblanardi. Ya'ni tasvir, bu oldindan sezish hisoblanib, u tilshunoslikda uslubiyat uchun ahamiyatlidir. Shu o'rinda til va san'at tarixi bilan shug'ullanuvchilar mehnati ulug'landi. Neogrammatistlar yo'nalishi ham, Kros va Vogler idealizmi o'rtasidagi farq ham, fonetik qonuniyatlarni "Voglerona usul"da muqokama qilish jarayonida yanada oydinlashdi. Voglarning "Frantsuz madaniyatining o'z qatlamda tasvirlanishi" asarida [Karl Vogler 1972] his-tuyg'u ham eng muqokamali va eng dolzarb mavzu bo'lganligini payqash mumkin. "Yosh grammatistlar" sababiyat muammosiga qiziqib, fonetik qonuniyatning asosini idealizmdan tashqarida izladilar. Karl Voglarning tilshunoslik kontseptsiyasiga ko'ra, "til xususiy holda madaniyat shaklidagi tushunchadir. Tilshunoslik markazidagi shaxs jamoadan o'rin egallaydi. Shaxs ongi, uning g'oyasi, til va yozuvi uni o'rganish uchun mavzu bo'la oladi".

Nemis lingvistlari Xelms Xatzfeld, Egen Lerch, Genrix Renfelder, Fredrix Sshur, stilist va etimologist Leo Spitzerlar Karl Vogler idealistik qarashlariga chuqurroq bog'landilar. O'z ustozlari Karl Vogler qarashlariga sodiq Fredrix Sshur "Tilshunoslik va zamon ruqi" [Friedrich Schûrr 1972] asarida juda xafli yo'lni tanladi. Uning nuqtai nazari tilshunoslik fanining haqiqiy dalillaridan uzoqlashdigina emas, balki olamshumul xavf ham soldi. U lingvist, stilist va etimolog o'rtasidagi ayri farqiyatni inobatga olmaydigan Voglerchilarning fikr-qarashlarini chuqurlashtirib, "*til va xalqni birlashtirish*" ilinjida kurtak chiqarayotgan "*gitlerchilar natsizmiga kerosin sepib*" qo'ydi. Natijada Vogler idealizmi ortodoks shaklda nasistlar tomonidan qo'llab-quvatlanib, ikkinchi jaqon urushida hukmronlik qila boshladi.

Idealizm doktrinasi qanchalik tanqidga uchramasin, uning lingvistik jug'rofiy maydoni kengayib borardi. Vogler idealizmi va lingvistik jug'rofiyasi ko'zlagan nuqtalar italyan yosh grammatistlariga – Askoli tilshunoslik maktabidagi an'analarga ham ta'sir etdi. Bir guruh tilshunoslar Mateo Bartoli, Julio Bertoni, keyinchalik A.Monteverdi, Benvenuto Terrasini, Bruno Miglifini, Tristano Bolelli va Alfredo



Schiafini birinchilar qatorida Kros estetik g'oyalarini inobatga oldilar. Alfredo Schiafini "Tilshunoslikda Kros estetikasi"[Алфредо Счафини 1972] ishida Kros g'oyalarini rivojlantirdi. Julio Bertoni o'zining «SHimoliy Italiya aqolisi shevalari»[Geulio Bertoni 1972] asarida Gillieronga tayanib fonetik qonuniyatlar moqiyatiga qarshi har bir so'zning o'zi mustaqil rivojlanishga ega deb baqoladi. Ikki yildan keyin, Julio Bertoni va Matteo Bartoli Italiya neolingvistlar maktabiga asos soldilar. Ba'zi yozishmalarida Bertoni o'zining yangi lingvistik kontsepsiyasi - "Lingvistika sofliqi"ni aniqroq ifodalashga urindi [Geulio Bertoni 1972]. Bertoni bu kontsepsiyasining birinchi qismini «Bosh tamoyillar», ikkinchi qismini esa "Texnik me'yorlar" tarzida belgilab, yakka qo'llanadigan so'zlarni dialekt asosida qiyos qildi. Matteo Bartoli uning nazariyasini "Neolingvistika yo'nalishiga kirish" asarida umumlashtirdi [Matteo Bartoli 1972].

Vulgar latin tiliga barham berish uchun Italiyani "roman tili beshigi" deb baho bergan G.Bonorante ham neolingvistika ruhiga mos ish olib borib, o'z lingvistik kontsepsiyasini alohida tushuntirdi. Ba'zi dialektolog olimlar Italiyadan tashqarida ham kroschilar va Voglerchilar fikrlarini qabul qildilar.

Shvetsariyalik romanistlar Gunar Tilander keng maydonda etimologik, Eyler Ekval muhim toponomik izlanishlarini tarixiy va jug'rofik ko'rinishlar asosda amalga oshirdi. U: "Ingliz tili joy nomlari" ("Euglish Place-Uame Dictionary") asarida "mutlaq shakl ostidagi har bir so'z o'zining tarixiga ega. Agar tilshunoslik nazariyasi yosh grammatistlarning fikrlarini to'g'ri deb aniqlik kiritisa, ularni tushunish zarurdir," - deb taklif kiritdi.

Shevalar tabiatini o'rganishga shung'ib ketish lingvistik ahamiyatdan ko'ra ko'proq ijtimoiy, madaniy, siyosiy yoxud iqtisodiy sohalar bilan qorishtirib borildi. Germaniya va Italiyada yuz bergan lingvistik holat Ispaniya yosh grammatistlarining g'ashiga tegdi. Ular lingvistik tadqiq yo'nalishini boshqa tarafga burib, til va madaniyat, til va adabiyot, til va tarix farqiyatida amalga oshirishni ma'qul ko'rdilar. Bu borada don Ramon Menedez Pidalning muvaffaqiyati neolingvistikachilar o'rtasida shuhrat qozondi va u uzoq davr ispaniyalik tilshunoslarga rahnamo bo'ldi. Ispan maktabi g'oyalari uning shogirdi Diego Katalan tomonidan umumlashtirilib, Latin Amerikasi tillarini xususiyatlarini aniqlashga yo'naltirildi. Shu tariqa strukturalizm dunyo bo'ylab kurtak ota boshladi.

Strukturalizmning otaxoni Ferdinand de Sossyurning aslida qiyosiy tilshunoslik vakili edi. Uning mashhur bo'lishiga ham qiyosiy va tarixiy tilshunoslik muammolariga bag'ishlangan g'oyasi sabab bo'lgan. U 22 yoshida Qind-Yevropa tillari oilasiga murojaat etib, qiyosiy tillardagi tovushlar tizimi tadqiqotini amalga oshirishga kirishdi va 1879 yilda shu yo'nalishda dastlabki ilmiy ishini e'lon qildi. Shundan so'ng u ilmiy ishlarini boshqa nashr etmadi. Ammo yillar o'tib uning yangicha ilmiy yondashishlariga, dastavval, Parij oliy maktablari va keyinchalik Jeneva universiteti tilshunoslarining qiziqishi orta bordi.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida "Zamonaviy lingvistika" deb nom chiqargan aloqida yo'nalish vakillari til tadqiqi bo'yicha yetakchi g'oyalarni kashf etdilar. Bu davrda til va nutq hodisalarini farqiyatda o'rganish imkoniyati paydo bo'ldi. F. de Sossyurning izlanishlari ham aynan shunga yo'naltirilgan edi. Ammo bu ta'limotni ziddiyatsiz amalga oshirish mumkin emas edi. O'z davrining taniqli tilshunosi Antuan Meye boshqa tilshunoslardan farqli o'laroq Sossyur fikrini kutilmaganda yoqlab ovoz berdi va shundan so'ng G'arb tilshunosligida strukturulizmga aloqida urg'u berildi. Aslida strukturalizm g'oyasi Sossyur vafotidan keyin 1916 yilda lingvist Robert Godel sharhi ostida uning ikki navqiron shogirdi SHarl Balli va Albert Seshey "Ferdinand de Sossyurning umumiy lingvistika kursi"ni nashr etilganidan keyin avj oldi [Saussure 1957]. Sossyur "Ma'ruzalar"i ilmiy ommaga kuchli ta'sir etdi. Uning shogirdlari ikki muhim tadqiqot usuli – **sistematika** yoki **strukturalizm** xususiyati yoki tuzulishini tadbiq qilishni qayotiy ehtiyoj hisoblagan edi. Bu usullar Sossyur uchun umumiy tilshunoslik tadqiq uslubini yangilashni talab qilardi. Shu ma'noda til tizimini yaxlit va butunligicha o'rganish, har bir nuqtada til tizimining boshqa unsurlari bilan to'qnashish mumkinligini u yaxshi bilardi. Sossyur zamonaviy tilshunoslikning neogrammatika ("Yosh



grammatistlar”) vakillari yo’lidan borib, ularning g’oyalari qo’llab-quvvatlagan holda ikki farqni ochib berdi: 1) “tasviriy” (sinxron) va “tarixiy” (diaxron) farqni; 2) “til//nutq” dixotomiyasini aniqlashtirdi. Boshqa fanlarda bo’lgani kabi u tilshunoslikda ham hodisalarni bevosita kuzatishda o’rganish mumkinligini, bu kuzatishlar (A-B vertikal va S-D gorizontal) assimetrik tarzda uning koordinata o’qidagi o’rniga ko’ra vaqt birligi bilan bog’liqligini isbotladi [Saussure 1957]. U, birinchi navbatda, tilshunoslikda mavjud bo’lgan hodisalar o’rtasidagi munosabatlarning o’zaro bog’liqligiga qiziqdi. Barcha hodisalar qatorida tilshunoslikdagi bu ikki farq ham qonuniy va ham zaruriy hodisa hisoblanardi. Negaki, “tasviriy” (sinxron) va “tarixiy” (diaxron) farqning o’zi ham, shu nuqtai nazardan olib qaralganda, tadqiq usuliga ko’ra biri ikkinchisidan ilmiyroq yondashishni talab etadi.

Sossyur ilgari surgan tamoyillar tilshunoslar tarafidan odatdagicha qabul qilindi va ko’pincha tasviriy (sinxron) ta’limot tilshunoslikning asosiy xususiyatlarini belgilab olishga yordam berdi. Bu tadqiqot usuli oldingi XIX asrdagi tilshunoslik yo’nalishidan farqli ravishda yangi g’oyalarni keltirib chiqardi. Sossyur va uning izdoshlari me’yoriy va falsafiy ta’limot asosida tilni yagona bir tizimga solishga harakat qilishdi. Boshqacha qilib aytganda, ular tilni aloqa vositasi quroli sifatida olib qarab, undan jamiyat uchun foydaliroq ish qilish mumkinligini asoslab berishdi. Tilning murakkab jarayonlarini ikki tomonlama o’rganish afzalligini – “til” va “nutq” dixotomiyasi va munosabatidan tuzilgan turli unsurlarni farqlash lozimligini ta’kidlashdi. Sossyurning tarafdori Antuan Meyet: “Til unsurlarini nutqdan ajratib muqokama qilmaslik kerak”ligini ta’kidlagandan keyin sinxron tadqiqotlarga nisbatan ko’plab e’tirozlar paydo bo’ldi. CHunonchi, mashhur ingliz olimi Otto Jespersen o’zining “Zamonaviy ingliz tili grammatikasi” (“Moderu English Grammar”)da tasviriy (sinxron) shaklga o’z munosabatini bildirib: “Til to’xtovsiz o’zgarishda bo’ladi, u bo’ysundirilgan holatlarni hisobga olmasligi mumkin... . Til holatini o’rganish va ta’riflash behuda... . Xo’sh, qachongacha eski tizim deysinishini muhokama qilishadi va qachon yangisi boshlanadi? Yangi sistem tilshunoslik loyihasi eski tilni vulgar tilda bayon qilish uchun ko’plab tizimlar qatorida turadigan tipik so’nggi namuna”[Malmberg Bertil 1972] kabi birmuncha ters munosabat bildirib, boshqalar o’rtasida Sossyur g’oyalari targ’ib etilishi va mukammallashtirilishiga sababchi bo’ldi [Jespersen 1909-1949]. Shundan keyin shveytsariyalik tilshunos Voxter Von Votburg ikki usul ham ta’dqiqot olib borish uchun to’xtovsiz xizmat ko’rsatishi va birini boshqasi to’ldirishi mumkinligiga ijobiy baho berdi.

Zamonaviy amerika tilshunosligining yirik vakili Leonard Blunfild tasviriy ta’limotning yuzaga chiqishi tarixiy tilshunoslikka bog’liqligini aniqladi: “Til tarixiga tegishli xulosalar sinxron tahlilni ajratib qo’ygan holatdagidek emas, balki ularni ikki tomonlama teng munosabatda o’rganish kerak. Agar har bir etapdagi mavjud tasviriy tizim ilmiy bo’lmasa, qator tarixiy xulosalar ko’ndalang bo’lib turadi. Tasviriy tilga muvofiq bunday usulni qo’llash bugungi tilshunoslikning asosiy muhim vazifasi hisoblanadi va bu tarixiy tilshunoslikka ham tegishlidir” [Walther von Wardburg. 1963].

Sossyur til tizimini quyidagicha, ya’ni barcha qoidalar yig’indisi - **tovush, leksika, ibora va sintaktik shakllar** vazifasi orqali belgiladi. Sossyur uchun til, avvalambor, shaxs tomonidan amalga oshirilgan nutq emas, balki kishilik jamiyati o’rtasidagi tizimdir. U nutqning til uchun ahamiyatini shunday ko’rsatadi: “Nutq - biror bir so’zlovchi tomonidan aniq vaqtda amalga oshiriladi. Nutq – xususiy, til – umumiy hodisadir. Til nutqning sharti hisoblanadi... . Agar gapirayotgan jarayon tizim qoidalari asosida qurilmasa, insonlar orasidagi aloqa munosabati amalga oshmaydi. Agar tilni o’rganmoqchi bo’lsak, matn (nutq) da faqat so’zlashish (nutqni o’rgatish) usullarini ko’rsatish lozim” [Saussure 1954].

Metodologiya

Maqolada G’arb tilshunosligi yo’nalishidagi tadqiqotlar sinxron va diaxron tahlil asosida amalga oshirilgan. Tadqiqotda zamonaviy lingvistik qarashlar, til va nutq o’rtasidagi dixotomiya, hamda turli lingvistik sohalar (grammatika, fonetika, dialektologiya, sociolingvistika, psixolingvistika, lingvokulturologiya va estetika) nuqtai nazaridan yondashilgan. Jumladan, tilshunoslik va estetika



o'rtasidagi bog'lanishlar, tilshunoslikda estetik tasvirlarning o'rni hamda til va nutqning tizimli o'zgarishlari o'rganilgan. Metodologik nuqtai nazardan, tahlil etilgan manbalar zamonaviy tilshunoslik hamda falsafa o'rtasidagi integratsiyani yoritishga xizmat qiladi. Sinxron tahlil metodlari yordamida tilshunoslik jarayonlarining hozirgi vaqtdagi holati va rivojlanish istiqbollari ko'rib chiqildi.

Natija va Muhokama

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, G'arb tilshunosligida estetik elementlar til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro aloqani chuqur anglashga yordam beradi. Til hamda estetika o'rtasidagi bog'liqlik tilshunoslikda yangi nazariy yondashuvlarni yuzaga keltiradi. Estetik elementlar, tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishlarida, ayniqsa lingvokulturologiya va psixolingvistika sohalarida muhim rol o'ynaydi. Bu sohada kelgusida yanada chuqurroq tadqiqotlar olib borish kerak, chunki til va madaniyatning o'zaro bog'liqligini yanada yaxshiroq tushunish imkonini yaratadi.

Xulosa shuki, Sossyur nazariyasi tilshunoslik asoslarini belgilashga, til va nutq o'rtasidagi "ratsional unumdorlik – jamiyat uchun foydaliroq ish qilish koeffitsenti"ni ta'minlashga yo'l ochib berdi. Bu nazariya har doim yashirin bahs va tanqidga uchragan bo'lsa ham, ammo barcha e'tirozlar Sossyurning ikki konsepsiyasi oldida va uni aniqlashtirishda imkonsiz qoldi. Evropada o'tgan asrning so'nggi choragida ko'p bora ta'kidlab o'tilgan tortishuvlar "til va nutq" bahsining ijobiy yakunlanishiga olib keldi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Алфредо Счафини, "El lenguaje en la Estetika de Crose", 1953
2. Bobokalonov R. R. O'zbek tilida semantik-funksional gaplar talqini, Toshkent: « Fan » nashriyoti. 2006, -3-127 b.
3. Benedetto Cross. Estetica come scienza dell'espressione e linguistica, 1900.
4. Geulio Bertoni. Le denominazioni dell'ambito nell'Italia del-Nord, 1909
5. Geulio Bertoni. Breviario di neolinguistic, 1925.
6. Гумбольд В. Избранные труды по языкознанию. – М.: 1984. С.154.
7. Malemberg B. Les Nouvelles Tendances de la Linguistique. Presses Universitaires de France, 108, Paris. 1972.
8. Karl Vogler. Positivismus und Idealismus indez Sprachwissenschaft, 1904.
9. Karl Vogler. *Frankreichs Kultur im Spiegel seiner Sprache*", 1913
10. Маттео Бартоли. "Introductione alla neolinguistica", 1925/ Les Nouvelles Tendances de la Linguistique. Presses Universitaires de France, 108, Paris. 1972.
11. Malmberg Bertil. Les Nouvelles Tendances de la Linguistique. Presses Universitaires de France, 108, Paris. 1972
12. Jespersen, Modern English Grammar , I-VII, 1909-1949.
13. Степанов Ю.С. Основы языкознания. – М.: "Просвещение", 1966.
14. Saussure F.de. Cours de linguistique générale» de 1957.
15. Friedrich Schür. Sprachwissenschaft und Zeitgeist, 1925
16. Walther von Wardburg. «Ineinandergreifen von historischer und deskriptiver Sprachforschung». 2e éd. 1963/ Les Nouvelles Tendances de la Linguistique. Presses Universitaires de France, 108, Paris. 1972.